

YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARINING FAOLLIGINI OSHIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARINING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11148598>

Norbekov Ahmadjon Norbekovich
Xusanov Jahongir Abdimo'minovich
Artiqova Adolat Ataboyevna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti akademik litseyi o'qituvchilari

Annotatsiya

Yangi O'zbekiston yoshlarining faolligini oshirishda Sharq mutafakkirlari qarashlarining ahamiyati kengroq yoritilgan.

Kalit so'zlar

Yangi O'zbekiston, ma'naviy meros, axloq, Fozil kishilar, Sharq mutafakkirlari.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-avgust kuni O'zbekiston ziyolilari bilan uchrashuvda "Havas qilsa arzidigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arzidigan beqiyos boyliklarimiz bor. va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arzidigan kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi", deb ta'kidlangan edi.

Darhaqiqat, buyuk allomalar va mashhur sarkardalar, mutafakkirlar, jumladan, Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Burxoniddin Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Abu-l-Muin Nasafiy, Najmiddin Kubro, Mahmud Zamaxshariy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Ahmad Farg'oniy, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab ulug' siymolar umumbashariyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganlar. Bu esa o'z o'rnida xalqimiz qalbida chuqur iftixor va milliy g'urur tuyg'ularini uyg'otib, shunday buyuk ajdodlarning avlodi ekanimizga shukronalar aytishga chorlaydi.

Manbalardan ma'lumki, turkiyzabon xalqlar o'z tarixida o'n sakkizta shavkatli saltanat qurgan. Insoniyat tarixida boshqa hech bir xalqqa bunday davlatchilik qurish nasib bo'lmagan. Bu davlatlar ichida eng mustahkam va qudratlisi, albatta, ulug' bobokalonimiz Amir Temur barpo etgan, adolatga tayangan, insonparvar qonunga va milliy qadriyatlarga asoslangan markazlashgan davlatdir. Bu xaqda bizgacha yetib kelgan tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar va betakror ma'naviy

meros bo'lgan qilgan davr ajdodlarimiz hayotida chinakam uyg'onish davri, milliy tiklanish va taraqqiyot pallasi bo'lgan.

Ta'kidlash joizki, ushbu davrda barcha sohalarda islohotlar o'tkazilib, xalq farovonligi va el-yurt tinchligi borasida asrlarga tatigulik ishlar amalga oshirilgan. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatda o'sish, yuksalish jarayonlari yuz bergan.

Aslida, moddiy va ma'naviy olam uyg'unlikka erishmagan davlat o'z maqsadiga erisholmaydi. Bamisoli bir qanoti shikastlangan qush kabi ko'zlagan manziliga yetolmaydi. Yaqin o'tmishda, ya'ni sobiq tuzumda shunday holat yuz berganiga barchamiz guvohmiz. Chunki bu tuzum hukmronlik qilgan davrda ma'naviyatga o'zgacha munosabatda bo'lindi. Hatto xalq ma'naviyati asoslaridan biri bo'lgan din afyun, deya talqin qilindi. Oxir-oqibat, o'zini qudratli, mustahkam va yengilmas sanagan tuzum parokanda bo'ldi, tanazzulga yuz tutdi. Zotan, Amir Temur lutf etganlaridek: "Qaysi mamlakatda dindan qaytish va xudosizlik kuchaysa, o'sha yurtning aholisi, qolaversa, xalqi turli maslakka kirib, ittifoqlari buzilsa, u mamlakatning halokati yaqindir". Mana, insoniyat tarixida ko'p marotaba o'z isbotini topgan xaqiqiy bashorat.

Davlat qudratli va mustahkam bo'lishi uchun kimga va nimalarga tayanish lozim? Ushbu masala yuzasidan bundan 2000 yil ilgari rimlik mashhur notiq va davlat arbobi Tsitseron shunday fikr bildirgan edi: "Davlatning tayanchi ko'hna udumlar (ma'naviy meros) va haqiqiy erlardir". Demak, Tsitseron yashagan davrda har taraflama mustahkam va qudratli davlatni barpo etish uchun, avvalambor, yuksak axloqiy fazilatlarga ega, aql-idrokli davlat rahbariga tayanilgan. Davlatning gullabyashnashi uchun xalq ma'naviyatini yuksaltirish talab etilgan. Bunga qo'shimcha qilib, Amir Temur davri va bugungi kunda mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan jarayonlarni tahlil qilgan holda aytish mumkinki, har taraflama mustahkam va qudratli davlatni barpo etish uchun yana quyidagi mezonlar ham darkor bo'ladi:

Birinchidan, davlat mustaqil bo'lishi, ya'ni qaram bo'lmasligi shart. Chunki qaram mamlakat hech qachon mustahkam va qudratli bo'lolmaydi. Qaramlikdan qutulish uchun aql-idrokli va mustahkam irodali, uzoqni ko'ra biladigan, qat'iyatli, talabchan va qattiqqo'l, vatanparvarva xalqparvar yetakchi - rahbari bo'lishi lozim. Chunki ushbu fazilatlarga ega rahbar bilan nafaqat mustaqillikka, balki mamlakatda qonun ustuvorligiga ham erishiladi. Qonun ustuvorligiga erishgan davlat esa mustahkam va qudratli bo'ladi.

Ikkinchidan, barcha sohalarda islohotlar o'tkazish hamda jamiyat a'zolari ma'naviyatini yanada yuksaltirish zarur. Chunki jamiyat a'zolari ma'naviyatini yuksaltirmasdan, yuqoridagi mezonlarni ro'yobga chiqarish qiyin. Barchaga

ma'lum, o'tish davrida mamlakatimizda madaniyat, san'at, adabiyot og'ir ahvolga tushib qolgan edi. Lekin olib borilayotgan oqilona siyosat tufayli, yurtimizda madaniyat, san'at, adabiyot nafaqat iqtisodiy zarbadan asrab qolindi, balki yuksalish darajasiga ko'tarildi. Ushbu sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan, ya'ni ma'naviy boyliklarni yaratishda samarali hissa qo'shayotgan ijod ahlini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat yuritishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berish nafaqat mamlakat Prezidentining, balki davlat hokimiyati va xo'jalik tashkilotlari rahbarlarining burchi, ham mas'uliyatli vazifasiga aylandi. Bugungi kunda jamiyat ma'naviy hayotining tayanchi bo'lgan ijodkor ziyolilarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish yanada kuchaytirildi. O'zbekistonda ilm-fan, san'at va madaniyat, kasb hunar ahlining ijodiy izlanishlari, muammo va o'y-tashvishlaridan boxabar bo'lish davlat rahbariyatining faoliyatida ustuvor yo'nalishlardan bo'lib kelgan va kelmoqda. Shuning uchun ham, Yaratganga shukronalar aytib, o'z faoliyati orqali yurt tinchligi va farovonligini ta'minlashga, xalq ma'naviyatini yuksaltirishga qodir bo'lgan yurtboshilar xalqimiz o'tmishida ham bo'lgan, bugungi kunida ham bor. Chunki aynan ularning sharofati tufayli xalqimizni butun dunyo tanigan, tanimoqda va tan olmoqda. Bejizga, tarixda o'tgan buyuk allomalarning ko'pchiligi davlat tepasida turgan kishi qanchalik dono, aqlli va sezgir bo'lishi o'sha davlat, xalq uchun shunchalik baxt, deyishmagan. Ular davlat va jamiyat, podsho va raiyat to'g'risida yozgan asarlarida, nufuzli insonning ma'naviy yetukligiga, pokligiga, halolligi va to'g'riligiga asosiy e'tiborni qaratib, adolat, rostlik, mehr-shafqat, saxovat va qanoat kabi sifatlarni himoya qilganlar, olqishlaganlar. "Sharq Arastusi" nomi bilan shuhrat qozongan, xalqimizning buyuk allomasi, mashhur faylasuf Abu Nasr Farobiyning o'lmas asarlaridan biri bo'lgan "Fozil odamlar shahri" aynan davlat boshqaruvi masalasiga qaratilgan. Jumladan, ushbu asarida Farobiy davlatni boshqaruvchi Allohdan boshqa hech kimga bo'ysunmasligi kerak, u tabiatan o'n ikkita xislat – fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Farobiy o'z asarida: "Rahbar avvalo sog'lom, aqlli, hushyor, zakovatli odam bo'lishi, qalbida adolat tuyg'usi jo'sh urib turishi, do'stu dushmani, rost va yolg'onni ajratadigan bo'lishi kerak. Davlatni fozil kishilar boshqarishi lozim. Fozil kishilar ko'paygan shaharlarda osoyishtalik, farovonlik ham bo'ladi", - deb yozadi. Ko'rinib turibdiki, ulug' alloma Abu-l-Muin Nasafiy ta'rifida ham adolatli rahbarning barcha fazilatlari, vazifa va majburiyatlari mujassam. Bugungi kunda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bu chuqur ma'noli ta'riflarni bugungi taraqqiyot talablari asosida yanada rivojlantirib: "Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan – shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham shu xalq. Bizga

ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak – odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak – avvalo xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo’ladi. Xalq rozi bo’lsa, ishimizda unum va baraka bo’ladi. Xalq bizdan rozi bo’lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo’ladi”, - deb ta’kidladi. O’ylaymizki, adolat tarozisida o’lchangan, naqlu aql mezoniga mos ushbu so’zlar bugungi kunda rahbar bo’lishdek mas’uliyatli vazifani o’z zimmasiga olgan odamlarga bevosita taalluqli. Chunki rahbarlik avvalambor mas’uliyatdir. Vatan oldidagi, xalq oldidagi mas’uliyatdir. Ana uni sezgan, el-yurt dardida yongan, xalq manfaatini o’z manfaatidan ustun qo’yadigan, qalbi pok insonlargina rahbar bo’lishdek sharaflil va yuksak mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga loyiqdirlar. Buning uchun Prezident Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “o’zimiz o’zimizga xiyonat qilmasligimiz, o’zimiz o’zimizni aldamasligimiz, halol-pok mehnat qilishimiz” lozim bo’ladi. Muhtaram Prezidentimizning ushbu so’zlari har bir fuqaro qalbiga o’rnashishi, unga og’ishmay amal qilishi adolatdan bo’ladi, albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Shavkat. “Adabiyot va san’at, ma’daniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori”. (2017-yil 3-avgustdagi mamalakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi). “Xalq so’zi”. 2017-yil. 4-avgust.
2. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2016 yilning 14 dekabrda Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisida
3. Abu Nasr Farobiy. “Fozil odamlar shahri”. Toshkent. Yangi avlod. 2016. 284- bet
4. Amir Temur. Temur Tuzuklari. “Ilm-ziyo-zakovat” nashriyoti. Toshkent - 2020. - 144 b